

Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,6 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2025- yil 1- oktabr holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1099	1205
Kosonsoy tumani	1311	1204
Namangan tumani	1406	1267
Norin tumani	1174	1163
Pop tumani	1665	1562
To'raqo'rg'on tumani	1427	1342
Uychi tumani	1273	1236
Uchqo'rg'on tumani	1499	1284
Chortoq tumani	1441	1378
Chust tumani	1951	1869
Yangiqo'rg'on tumani	1171	1236
Namangan sh.	6907	6904

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 3138 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar soni savdo sohasida 1296 ta, sanoat sohasida 487 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 438 ta hamda 917 ta boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar- sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 923 ta, Mingbuloq tumanida 258 ta, Uchqo'rg'on tumanida 240 ta, Kosonsoy tumanida 219 ta, Chortoq tumanida 213 ta hamda Chust tumanida 212 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar- sentabr oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	234	258
Kosonsoy tumani	220	219
Namangan tumani	123	141
Norin tumani	181	207
Pop tumani	254	204
To'raqo'rg'on tumani	154	161
Uychi tumani	151	171
Uchqo'rg'on tumani	256	240
Chortoq tumani	204	213
Chust tumani	238	212
Yangiqo'rg'on tumani	240	189
Namangan sh.	954	923

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,8% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,6 foizga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 342,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 51,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (100,0 %), Norin tumani (99,9 %), Pop tumani (90,3 %) va Namangan tumani (86,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 10 103,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kosonsoy tumani (99,0 %) Chortoq tumani (98,8 %) Norin tumani (98,6 %), Mingbuloq tumani (98,5 %), va hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 40 658,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 79,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 117,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Pop tumani (94,8 %), Mingbuloq tumani (94,2 %), Kosonsoy (90,6 %) va Uychi (90,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 26 611,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulush Chust (99,4 %), Chortoq (99,3 %), Kosonsoy (99,2 %), To'raqo'rg'on (99,1 %) va Yangiqo'rg'on (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 17 419,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uychi (99,1 %), Yangiqo'rg'on (98,9%) Kosonsoy (98,9 %) va Uchqo'rg'on (98,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 27 418,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 74,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on (82,1 %), Namangan (81,1 %), Mingbuloq (78,8 %), Kosonsoy (78,6 %) Uychi (78,5 %) va Norin (78,5 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 238,2 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 48,4 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, hamda Pop tumanlarida – 100,0 % ni, Chortoq tumanida – 83,7 %, Namangan tumanida – 81,3 % va Namangan shahrida – 69,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 503,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 68,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumanida – 96,5 %, Norin tumanida – 95,9 %, Pop tumanida – 95,5 %, Namangan tumanida – 90,1 % Namangan shahrida – 76,0 %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,5 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,2 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrda 32,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrda 33,7 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,5 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 60,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 62,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 4,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib bu ko'rsatkich 3,9 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 38,1 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 47,3 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 48,0 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 50,6 % yoki 2,6 birlikka ko'paygan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 5,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib bu ko'rsatkich 2,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida – 41,8,% ni, xizmatlar sohasida – 28,8 % ni va sanoat sohasida – 17,5 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – 42,6,% ni xizmatlar sohasida – 29,9 % ni, va sanoat sohasida – 18,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – 39,0,% ni xizmatlar sohasida – 36,6 % ni va sanoat sohasida – 14,6 % ni, tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:
A. Javharov
69 211-72-00 (5030)

Manzil:

